

## HOFIZ XORAZMIY DEVONIDA GRAFIK VOSITALAR LINGVOPOETIKASI

*Otajonova Farogat G'afurjonovna, UrDU "O'zbek  
tilshunosligi" kafedrasida o'qituvchisi*

## LINGUOPOETICS OF GRAPHIC TOOLS IN THE OFFICE OF HOFIZ KHVARAZMIY

*Otajonova Farogat Ghafurjonovna, Teacher of the Department of  
"Uzbek linguistics" of UrDU*

## ЛИНГВОПОЭТИКА ГРАФИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ДЕВОНЕ ХАФИЗА ХОРЕЗМИ

*Оттажоновна Фарогат Гафуржоновна, преподаватель  
кафедры "Узбекская лингвистика" УрГУ*



<https://orcid.org/0009-0002-6984-4474>

e-mail:  
[farogatotajonova69@gmail.com](mailto:farogatotajonova69@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada 1981-yilda professor Hamid Sulaymonov tomonidan nashr qildirilgan Hofiz Xorazmiy devoni matnida aniqlangan ba'zi xatolarning yuzaga kelish sabablari xolisona o'rganiladi. Ushbu so'zlar o'rnida qo'llanilishi kerak bo'lgan so'zlar havola qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Hofiz Xorazmiy devoni, matn lingvopoetikasi, faksimile, chun va xun, xayol va xayyol, karam va garm so'zlarining matniy xususiyatlari.

**Abstract:** The article objectively studies the causes of some errors identified in the text of Hafiz Khorezmi's book published by Professor Hamid Sulaimanov in 1981. Words that should be used in place of these words are referenced.

**Key words:** Hofiz Khorazmi's book, linguopoetics of the text, textual features of the words facsimile, chun va xun, xayol va xayyol, karam va garm.

**Аннотация:** В статье объективно исследуются причины некоторых ошибок, выявленных в тексте книги Хафиза Хорезми, изданной профессором Хамидом Сулаймановым в 1981 году. Слова, которые следует использовать вместо этих слов, указаны.

**Ключевые слова:** книга Хофиз Хорезми, лингвопоэтика текста, текстуальные особенности слов факсимиле, чун и хун, хаял и хайял, карам и гарм.

**KIRISH.** Mumtoz matn lingvopoetikasining asosiy xususiyatlaridan biri matnshunoslik bilan uzviyligidadir. Qo'lyozma (faksimile) yuzasidan olib borilayotgan tadqiqot tilshunosdan matnshunos sifatida ham yondashishni talab qiladi. Chunki "matnshunos qo'lyozma nusxadagi xattotlar uslubini diqqat bilan o'rganishi, harflarning "bejirim tasvirlari" o'rtasidagi bog'liqlikka,

ularning o'ziga xos bezak-unsurlariga e'tibor berib, xatolik nima sababdan sodir bo'lganini aniqlashi lozim. Ba'zi hollarda, xattotlar so'zni o'qiy olmasalar, kontekstdan kelib chiqib, o'zlaricha matnni tuzatib yoki to'ldirib ketganlar. Matnshunos tomonidan xolis aniqlangan xato qiyosiy tahlil orqali asosiy matnda tuzatib boriladi"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Сирожиддинов Ш. Адабий манбашунослик ва матншунослик. –Тошкент: 2018. – Б. 67.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Hofiz Xorazmiy devonining 1981-yildagi o‘zbek olimi Hamid Sulaymonov hamda 1998-yilda Turkiyada Rejep To‘parli tomonidan nashr qilingan nashrlari matni devonining faksimilesi o‘zaro qiyosiy-tahliliy metod orqali tadqiq qilinadi.

**MUHOKAMA.** Hofiz Xorazmiy devonini nashrga tayyorlagan o‘zbek olimi Hamid Sulaymonov ham, turkiyalik olim Rejep To‘parli ham matnga juda katta e‘tibor va ehtimom bilan yondashadigan mutaxassis bo‘lgani bois, bir qadar murakkab xat bilan yozilgan asarni muvaffaqiyat bilan o‘qiganlar. Rejep To‘parli Hamid Sulaymonovning bu boradagi mehnatlarini qadrlab, “Chig‘atoy adabiyotining hozirgi kungacha eng muhim shoirlaridan biri bo‘lgan Xorazmiy Hofizning she‘rlarini o‘z ichiga olgan devonini professor Hamid Sulaymonov tomonidan Hindistonning Haydarobod shahridagi Salarjang muzeyidan topilgan yagona nusxasi asosida 1981-yilda kirill alofbosida ikki jildga jamlab nashr qilingani va shu tariqa ilmiy jamoatchilikka tanishtirilgani” haqida “nihoyatda go‘zal she‘rlarni o‘zida mujassam etgan bu devon til tarixi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega”, – deb baholar ekan, ayrim mulohazalarini ham bayon etadi.

**NATIJALAR.** Jumladan, olim 17-g‘azaldagi:  
*Lavhi ko‘ngulda mushaf-i ishqin tamom o‘qib,*  
*Hejdah hazor olamini ashrxon tila,*  
baytidagi *o‘n sakkiz ming* ma‘nosidagi so‘z, haqiqatan, *sarhat* tarzida yanglish o‘qilganini qayd etadi<sup>2</sup>. Faksimile bilan tanishgan mutaxassis

*سەككىز مىڭ*<sup>3</sup> so‘zini o‘qishning o‘zi anchayin qiyin ekanin tushunadi. Qolaversa, bu so‘zning to‘g‘ri o‘qilishida mumtoz poetik qonuniyatlarga rioya qilish qo‘l keladi. Sababi bayt tanosub asosida qurilgan bo‘lib, *lavh, mushaf, o‘qimoq, ashrxon* so‘zlari tanosubi yuzaga keltirilgan. *Lavh, mushaf* so‘zlari ma‘nolari bugungi o‘quvchiga bir qadar ma‘lum bo‘lgani bois *ashrxon* so‘zi xususida to‘xtalamiz. Arabcha *o‘n* ma‘nosida *‘ashr* عسر va

forscha *o‘quvchi* ma‘nosidagi *xon* خوان dan iborat bu so‘zning “Farhangi Dehxudo”da turli lug‘atlardagi izohlari jamlangan. Jumladan, “G‘iyosu-l-lug‘ot”da *ashrxon* “Qur‘on o‘qishni yangi boshlagan o‘rganuvchi. Chunki unga dastlab tabarruk sifatida o‘n oyat o‘rgatiladi”. “Burhoni qote”da esa Qur‘on qorisi, hofizi Kalom” hamda “ishdan (lavozimidan) bo‘shatilgan odam” kabi ma‘nolari izohlangan. Keyinchalik *ashrxon* ham xuddi *abjadxon*<sup>4</sup> so‘zi singari tajribasiz; maktab bolasi; yosh bola kabi ma‘nolarni kasb etgan. Shu asosida baytning umumiy mazmuni “Uning ishq mushafi (Qur‘oni)ni ko‘ngul lavhiga qo‘yib o‘qib [chiqsang] (Kalomulloh asrorini imkon qadar anglagan holda), o‘n sakkiz ming olamni uning oldida bir maktab bolasi sifatida ko‘rsan” tarzida namoyon bo‘ladi. A.Rustamov yozishicha, *olam* so‘zining o‘ziga xos tomoni shundaki, u faqat moddiy mavjudot emas, ma‘naviyotga nisbatan ham qo‘llanadi. Undan tashqari “olam” so‘zi borliqning azaliy va abadiy jihatini ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan “olam” so‘zi “dunyo” va “koinot” so‘zlariga nisbatan mazmunan kengdir... “O‘n sakkiz olam”, “o‘n sakkiz ming olam”, “yetmish ming olam”, “uch yuz oltmish ming olam” degan iboralar ham bor bo‘lib, bular ilmiy asosga ega emas. Bulardan “o‘n sakkiz ming olam” mashhur bo‘lib, mubolag‘a uchun qo‘llanadi<sup>5</sup>. Demak, o‘n sakkiz ming (*hejdah hazor*)ning *olam* so‘zi bilan birikma hosil qilishini e‘tiborga olish matnning aniq o‘qilishini ta‘minlaydi.

Xuddi shunga o‘xshash holatni 250-g‘azalda ham kuzatamiz (bu holat ham Rejep To‘parli tomonidan qayd etilgan). Nashrda:  
*Yetgay umidina ko‘zum ishq yo‘linda oqibat,*  
*To‘sha-yi roh emdikim chun jigar qilaturur.*

Nashrda *chun* deb o‘qilgan so‘z aslida *xun*, ya‘ni “qon”dir. Eski yozuvimizda *chun* چون va *xun* خون so‘zlari bir xil yozilib, nuqtalarining soni va satr osti yoki ustidaligi bilan farqlanadi. Demak, *chun jigar* deb o‘qilgan birikma aslida *xuni jigar*, ya‘ni “bag‘ir qoni”dir. Ana shunda bayt mazmuni “Ishq

<sup>2</sup> Harezmiy Hafiz’in divani. – Ankara: Turk Dil Kurumu, 1998– S. 3.

<sup>3</sup> Harezmiy Hafiz’in divani. – Ankara: Turk Dil Kurumu, 1998– S. 68.

<sup>4</sup> Иброҳимов С., Шамсиев П. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1972. – Б. 22.

<sup>5</sup> Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 84.

yo'lida ko'zim endi manziliga yetishiga umid qilaman. Chunki u o'ziga bag'ir qonini yo'l ozug'i qilgan" tarzida namoyon bo'ladi. Bu yerda *yo'l, to'shayi roh* birikmalari tanosub hosil qilgan. *To'shayi roh* birikmasi mumtoz adiblarimiz tilida *zodi rohila* birikmasi bilan ham ifodalangan. Mana shu g'azal mutolaasi davomida undan oldingi bayt ham e'tiborimizni tortdi. Chunki shu baytda safar taraddudi haqida gap ketadi va muallif:

*Tor og'zi xayolidin xasta ko'ngul bo'lub xayol,  
Oh, adam jahonina azmi safar qilaturur, – deydi.*

Baytni nasriy bayonga aylantirsak, "uning tor og'zini o'ylagan xasta ko'ngil xayol bo'lib, yo'qlik dunyosiga safar qilishga chog'lanadi", shakliga keladi. Ko'rinib turibdiki, fikr to'liq shakllanishi uchun "nimadir" yetmayapti. Nazarimizda, o'sha "nimadir" ikkinchi *xayol* so'zi aslida "suvo'riy", "chavandoz" ma'nolarini beruvchi *xayyol* so'zi ekani bilan bog'liq. Chunki mumtoz matnlarda *xayol* خیال va *xayyol* خیال so'zlari bir xil yoziladi. Hatto *xayyol* so'zi juda kam ishdatilganidan, M.Mu'inning "Farhangi forsiy" lug'atidan joy olmagan. Shuningdek, "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da ham bu so'zni uchratmaymiz. Ana shunda bayt mazmuni "uning tor og'zini o'ylagan xasta ko'ngil o'tliq bo'lib (ya'ni, nihoyatda tezkorlik bilan), yo'qlik dunyosiga safar qilishga chog'lanadi".

R.To'parli yana bir misol sifatida 649-g'azalda *garm* bo'lishi kerak bo'lgan so'zning *karam* tarzida o'qilganini eslatadi. Devondagi 649-g'azal:

*Sanga jon birla qul bo'lubtururman, ey shahanshohim,*

*Chu olam ichra sandin o'zga yo'q sulton-i ogohim,*  
– matlasi bilan boshlanadi. G'azalning 3-bayti nashrda

*Manim holimg'a rahm aylab, nazar karam aylagay erding,*

*Yetishsa sam'inga hijron o'tinda nola-vu ohim, – tarzida berilgan.*

Ko'rinib turibdiki, bu baytning birinchi misrasida hazaji musammani mahzuf vazni buziladi. Sababi, aslida *garm* bo'lgan so'zning *karam*

tarzida o'qilishidir. Misra "Manim holimg'a rahm aylab, nazar garm aylagay erding" shaklini olishi bilan vazn joyiga tushadi. Birinchi holatda mazmun-mohiyat muvofiq bo'lishiga qaramay, vazn buzilishi yuz berishi misraning asl shakli bunday bo'lmasa kerak, degan shubha tug'diradi. Chunki mumtoz adiblarimiz, xususan, Hofiz darjasidagi daho shoir-larda vazniy nomuvofiqliklar uchramaydi. "*Karam*" "*garm*"ga aylantirilgandan keyin esa, misra mazmuni uncha o'zgarmaydi, ya'ni "mening holimga rahm qilib, bir nazar ehson qilsang edi..." tarzida qoladi. Sababi, fors tilida asl ma'nosi *qizdirmoq* bo'lgan *garm kardan* گرم کردن *iliq munosabatda bo'lmoq* mazmunini ham ifodalaydi<sup>6</sup>. Bu ikki so'zning ba'zan biri o'rniga ikkinchisi o'qilishi holatiga A.O'razboyev ham Ogahiy asarlari misolida e'tibor qaratgan. Xususan, Ogahiy devonidagi "Bo'lub karam tafakkur, Ogahiy, qil puxta so'z nikim, So'zingg'a so'z toporg'a ochmasun hech bir suxandon lab" baytidagi "bo'lub karam tafakkur" birikmasini "bo'lub garmi tafakkur" tarzida o'qish kerak. Chunki, birinchi holatda umuman biror fikr anglashilmaydi. Ikkinchi holat esa "tafakkur bilan mashg'ul bo'lgan holda", "teran tafakkur qilgan holda" degan ma'noni beradi. Aslida "issiq" ma'nosini anglatgan "garm" so'zi izofiy holatda "biror narsa bilan band bo'lish", "g'oyat mashg'ul bo'lish" ma'nosini beradi. Fors tilida "ish bilan bandman" mazmuni "sargarmi koram" tarzida namoyon bo'lishining sababi shu. Eng asosiysi, qo'lyozmada *garm* va *karam* so'zlari bir yoziladi. Sababi kotiblar "kof" ك va گ "gof" harflarini odatda bir xil shaklda yozadilar. Eng muhimi, bizning islohimizdan keyin bayt vazni o'z joyiga tushadi – hazaji musamanni solim holiga keladi<sup>7</sup>.

**XULOSA.** Vazn xususiyatlarini e'tiborga olish bir xil yozilgan so'zlarnigina emas, bir so'zning o'zini ham turli xil tabdil qilinishi mumkinligini ham e'tiborga olish kerak. Masalan, ayni bir so'z yoki so'z birikmasining o'zi bo'lgan *guliston* (17-g'azal), *durri* (19-g'azal), *sarafroz* (21-g'azal), *ikki* (28-g'azal), *qadimni* (32-g'azal), *davron husni* (45-g'azal), *xatti* (65-g'azal),

<sup>6</sup> Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – С. 393.

<sup>7</sup> Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс... – Тошкент, 2018. – Б. 194.

*shakariston* (86-g'azal), *men savdozodaga* (131-g'azal), *guhar* (146-g'azal) *gulsiton*, *duri*, *sarfarozi*, *iki*, *qaddimni*, *davroni husni*, *xati*, *shakkarsiton*, *meni savdozodaga*, *gavhar* shaklida o'qilishi kerak.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI  
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /  
REFERENCES):**

1. Harezmli Hafiz'in divani. – Ankara: Turk Dil Kurumu, 1998– S. 68.
2. Иброҳимов С., Шамсиев П. Алишер Навоий асарлари луғати. – Тошкент: Фафур

Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1972. – Б. 22.

3. Персидско-русский словарь. Том II. – М.: Русский язык, 1983. – С. 393.

4. Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 84.

5. Сирожиддинов Ш. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: 2018. – Б. 67.

6. Ўразбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. Филол. фанлари д-ри дисс.– Тошкент, 2018. – Б. 194.

